Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 33-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

VIZA REJIMINI LIBERALLASHTIRISHNING KIRUVCHI TURIZMGA TA'SIRINI BAHOLASH: GRAVITATSIYA MODELI VA MASHINALI O'QITISH UYG'UNLIGI

JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Statistika" kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD)
E-mail: jumayevabduakbar@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8935-032X15:49

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonga kiruvchi turistlar oqimini belgilovchi omillar va 2018–2019-yillarda amalga oshirilgan viza rejimini liberallashtirish islohotining ta'siri baholangan. Buning uchun gravitatsiya modeli, voqealar tahlili va mashinali o'qitish algoritmlarini birlashtiruvchi "Turistlar jozibadorligi omillari modeli" taklif etilgan. Gravitatsiya modeli 2014–2025-yillardagi mamlakatlar kesimidagi rasmiy ma'lumotlar asosida Puasson psevdo-maksimal haqiqatga o'xshashlik usulida baholangan. Natijalarga ko'ra, turistlar oqimi mamlakat aholisi (elastiklik 0,83), daromadi (0,89) va masofa (−1,59) bilan belgilanadi, chegaradosh mamlakatlardan oqim 7,5 baravar, MDH mamlakatlaridan 11,4 baravar yuqori. Viza rejimining ta'siri bir necha yil davomida shakllangan va 2022–2024-yillarda oqimning 102–178 foizga oshishiga mos kelgan. XGBoost modeli namunadan tashqari davrda eng yuqori aniqlikni ta'minlagan (R^2 = 0,850). Hindiston, Pokiston va Bangladesh bozorlarida salohiyatdan foydalanish darajasi past ekani aniqlangan.
Kalit so'zlar: kiruvchi turizm, gravitatsiya modeli, Puasson usuli, viza rejimi, voqealar tahlili, farqlar ayirmasi, mashinali o'qitish, XGBoost.

Аннотация. В статье оценены факторы туристских потоков в Узбекистан и влияние реформы либерализации визового режима 2018–2019 годов. Для этого предложена «Модель факторов туристской привлекательности», объединяющая гравитационную модель, анализ событий и алгоритмы машинного обучения. Гравитационная модель оценена методом псевдомаксимального правдоподобия Пуассона по официальным данным в разрезе стран за 2014–2025 годы. Согласно результатам, туристский поток определяется численностью населения страны (эластичность 0,83), доходом (0,89) и расстоянием (−1,59); поток из сопредельных стран выше в 7,5 раза, из стран СНГ – в 11,4 раза. Эффект визового режима формировался в течение нескольких лет и в 2022–2024 годах соответствовал росту потока на 102–178 %. Модель XGBoost обеспечила наибольшую точность вне выборки (R^2 = 0,850). Выявлен низкий уровень использования потенциала на рынках Индии, Пакистана и Бангладеш.
Ключевые слова: въездной туризм, гравитационная модель, метод Пуассона, визовый режим, анализ событий, разность разностей, машинное обучение, XGBoost.

Abstract. The article assesses the determinants of inbound tourist flows to Uzbekistan and the impact of the 2018–2019 visa liberalization reform. A "Tourist Attractiveness Factors Model" is proposed that combines a gravity model, an event study and machine learning algorithms. The gravity model is estimated by Poisson pseudo-maximum likelihood using official country-level data for 2014–2025. Tourist flows are driven by the population (elasticity 0.83), income (0.89) and distance (−1.59) of origin countries; flows from neighbouring countries are 7.5 times higher and from CIS countries 11.4 times higher. The visa effect built up over several years and in 2022–2024 corresponded to a 102–178% increase in flows. XGBoost achieved the highest out-of-sample accuracy (R^2 = 0.850). The potential of the Indian, Pakistani and Bangladeshi markets is found to be largely untapped.
Keywords: inbound tourism, gravity model, Poisson estimator, visa regime, event study, difference-in-differences, machine learning, XGBoost.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

KIRISH

O‘zbekiston turizm sohasida 2017–2019-yillarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi: ko‘plab mamlakatlar fuqarolari uchun vizasiz rejim va elektron viza joriy etildi [1, 2]. Shundan so‘ng kiruvchi turistlar soni keskin oshdi, biroq bu o‘sishning qancha qismi viza islohoti, qancha qismi boshqa omillar – chegaralarning ochilishi, valyuta kursining erkinlashtirilishi va xorijiy mamlakatlar daromadining o‘sishi hisobiga ekani miqdoriy baholanmagan. Bu savolga javob turizm siyosatining samaradorligini baholash va keyingi choralarni rejalashtirish uchun zarur.

Maqolaning maqsadi – O‘zbekistonga kiruvchi turistlar oqimining omillarini aniqlash, viza rejimini liberallashtirishning ta’sirini boshqa omillardan ajratib baholash va salohiyatdan to‘liq foydalanilmayotgan bozorlarni aniqlash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Gravitatsiya modeli J.Tinbergen tomonidan xalqaro savdo oqimlarini tahlil qilish uchun taklif etilgan [3], uning nazariy asoslari J.Anderson va E. van Vinkup ishlarida ishlab chiqilgan [4, 5]. C.Morli, J.Rosselo va M.Santana-Gallego gravitatsiya modelining turizm talabi uchun mikroiqtisodiy asosini ko‘rsatgan [6], K.Xed va T.Mayer hamda Y.Yotov va hammualliflar modelni baholashning zamonaviy amaliy qo‘llanmalarini tayyorlagan [7, 8]. J.Santos Silva va S.Tenreyro oqimlarda nol qiymatlar va geteroskedastiklik mavjud bo‘lganda logarifmlangan model siljigan baholar berishini isbotlab, Puasson psevdo-maksimal haqiqatga o‘xshashlik usulini taklif etgan [9, 10].

Viza rejimining turizmga ta’siri bo‘yicha E.Noymayer 1995–2005-yillar ma’lumotlari asosida viza cheklovlari ikki tomonlama sayohatlarni 52–63 foizga kamaytirishini aniqlagan [11], F.Balli va hammualliflar Turkiya misolida vizasiz rejimning kiruvchi turizmga ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan [12]. Siyosat choralarining sof ta’sirini baholash uchun farqlar ayirmasi usuli keng qo‘llaniladi [13], uning cheklovlari esa M.Bertran va hammualliflar hamda A.Gudman-Bekon tomonidan tahlil qilingan [14, 15]; muolaja vaqti turlicha bo‘lgan holatlar uchun B.Kallauey va P.Sant’Anna usuli taklif etilgan [16].

Turizm talabi elastikliklari bo‘yicha B.Peng va hammualliflar meta-tahlil o‘tkazgan [17], turizm talabi modellari sharhlari G.Krauch va C.Lim ishlarida berilgan [18, 19]. Mashinali o‘qitish algoritmlaridan Random Forest [20] va XGBoost [21] jadvalli ma’lumotlarda yuqori bashorat aniqligi bilan ajralib turadi. Biroq O‘zbekiston uchun ushbu yondashuvlarni birlashtirgan tadqiqot o‘tkazilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Milliy statistika qo‘mitasining 2014–2025-yillarda O‘zbekistonga kelgan chet el fuqarolarining mamlakatlar bo‘yicha taqsimoti [22] hamda Jahon bankining aholi soni, aholi jon boshiga YaIM va narx darajasi ma’lumotlari [23] qo‘llanildi. Gravitatsiya modeli quyidagi ko‘rinishda baholandi:

$$T_{jt} = \exp\left(\beta_0 + \beta_1 \ln POP_{jt} + \beta_2 \ln Y_{jt} + \beta_3 \ln DIST_j + \gamma' Z_j + \beta_4 \ln RP_{jt} + \delta VISA_{jt} + \mu_t\right) \cdot \varepsilon_{jt} \quad (1)$$

bu yerda T_{jt} – j-mamlakatdan t-yilda kelgan turistlar; POP_{jt} – aholi soni; Y_{jt} – aholi jon boshiga daromad; $DIST_j$ – Toshkentgacha masofa; Z_j – chegaradoshlik, MDH a'zoligi va til yaqinligi belgilari; RP_{jt} – nisbiy narx darajasi; $VISA_{jt}$ – vizasiz yoki elektron viza rejimi belgisi; μ_t – yil qat'iy effektlari. Viza rejimi ta'sirining yillar bo'yicha dinamikasi voqealar tahlili asosida baholandi:

$$T_{jt} = \exp\left(\alpha_j + \mu_t + \sum_{k \neq 2017} \delta_k \cdot D_j \cdot 1_{t=k} + \theta' W_{jt}\right) \cdot \varepsilon_{jt} \quad (2)$$

$$\Delta\% = \left(e^{\delta} - 1\right) \cdot 100 \quad (3)$$

bu yerda D_j – viza rejimi liberallashtirilgan mamlakatlar belgisi; δ_k – k-yildagi ta'sir (2017-yilga nisbatan). Mashinali o'qitish modellari 2014–2022-yillar ma'lumotlarida o'qitilib, 2023–2025-yillar bo'yicha tekshirildi. Model diagnostikasi uchun RESET testi, Park testi va multikollinearlik ko'rsatkichi (VIF) qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Gravitatsiya modelini baholash natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Turistlar jozibadorligi omillari modelining gravitatsiya bosqichi natijalari (Puasson psevdo-maksimal haqiqatga o'xshashlik usuli)

Omil	Model 1: yig'ma model	Model 2: mamlakat qat'iy effektli model
ln(aholi soni)	0,828*** (0,117)	–
ln(aholi jon boshiga daromad)	0,887*** (0,342)	−0,669 (1,255)
ln(masofa)	−1,585*** (0,499)	–
Chegaradoshlik	2,014** (0,805)	–
MDH mamlakati	2,432*** (0,490)	–
Til yaqinligi	0,196 (0,909)	–
ln(nisbiy narx darajasi)	0,458 (0,816)	−2,269 (1,715)
Vizasiz / elektron viza rejimi	0,049 (0,629)	0,617 (0,418)
Mamlakat qat'iy effektlari	yo'q	bor
Yil qat'iy effektlari	bor	bor
Kuzatuvlar / mamlakatlar	2169 / 181	2157 / 180

Manba: Muallif hisob-kitoblari (O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida).
*Izoh: * * * p<0,01; * * p<0,05; * p<0,1; qavs ichida mamlakatlar bo'yicha klasterlangan standart xatolar. Model 1 uchun psevdo-R^2 = 0,82. Model 2 da viza rejimi va pandemiya yillari o'zaro ta'siri ham hisobga olingan.*

Jadvalga ko'ra, mamlakat aholisi 1 foizga ko'p bo'lsa, undan keluvchi oqim 0,83 foizga, daromad 1 foizga yuqori bo'lsa, 0,89 foizga ko'p bo'ladi; masofa 1 foizga uzoq bo'lsa, oqim 1,59 foizga kamayadi. Chegaradosh mamlakatlardan keluvchi oqim boshqa sharoitlar teng bo'lganda 7,5 baravar, MDH mamlakatlaridan 11,4 baravar yuqori. RESET testi model shaklining to'g'riligini tasdiqladi (p = 0,314), maksimal VIF 2,88 ga teng. Log-chiziqli model esa geteroskedastiklik va noto'g'ri shakl testlaridan o'ta olmadi, unda 613 ta nol kuzatuv (28,3%) tushib qoldi. Bu Santos Silva va Tenreyro xulosalarining [9]

O‘zbekiston ma’lumotlarida ham o‘rinli ekanini ko‘rsatadi. Viza rejimi ta’sirining dinamikasi quyidagi rasmda keltirilgan.



Muallif hisob-kitoblari (O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida).

1-rasm. Viza rejimi ta’sirining yillar bo‘yicha dinamikasi (90 foizli ishonch oralig‘i bilan)

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, viza rejimining ta’siri asta-sekin to‘plangan: 2018–2019-yillarda koeffitsiyentlar 33–56 foizlik o‘sishga mos kelgan, pandemiya yillarida ta’sir vaqtincha yo‘qolgan, 2022–2024-yillarda esa 0,70–1,02 ga yetib, oqimning 102–178 foizga oshishiga mos kelgan. Islohotdan oldingi yillar koeffitsiyentlarining birgalikdagi testi parallel tendensiyalar shartini rad etmadi (p = 0,153). Natijalarimiz E.Noymayerning baholari oralig‘iga yaqin [11], biroq ta’sirning bir necha yil davomida shakllanishini ko‘rsatadi: vizasiz rejimdan keyin aviaqatnovlar ochilishi va turoperatorlarning yangi mahsulotlari vaqt talab etadi.

Mashinali o‘qitish modellari namunadan tashqari davrda klassik modellardan aniqroq natija berdi: determinatsiya koeffitsiyenti XGBoost uchun 0,850, Random Forest uchun 0,812, gravitatsiya modeli uchun 0,791 ni tashkil etdi. Eng muhim omillar mamlakat aholisi (36,5–41,2%), masofa (27,9–28,2%) va daromad (16,6–18,6%) bo‘ldi. Gravitatsiya modeli asosida salohiyatdan foydalanish darajasi Hindistonda 31%, Pokistonda 23%, Bangladeshda 9%, Saudiya Arabistonida 33% ekani aniqlandi; faqat Hindiston bozorida salohiyatga erishish qo‘shimcha 179 ming turistni anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, O‘zbekistonga kiruvchi turistlar oqimi asosan turist kelayotgan mamlakat aholisi, daromadi va masofa bilan belgilanadi, chegaradoshlik va MDH a’zoligi esa oqimni bir necha baravar oshiradi. Ikkinchidan, viza rejimini liberallashtirish ta’siri ijobiy bo‘lib, u bir necha yil davomida shakllanadi; shu sababli viza siyosati samarasini qisqa muddatli ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholash noto‘g‘ri xulosaga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish algoritmlarini

birgalikda qo‘llash omillar ta’sirini izohlash va prognoz aniqligini oshirish imkonini beradi.

Turizm qo‘mitasiga salohiyatdan to‘liq foydalanilmayotgan bozorlarni turoperatorlarni rag‘batlantirish dasturlariga kiritishda salohiyatdan foydalanish koeffitsiyentidan obyektiv mezon sifatida foydalanish [24], viza rejimini liberallashtirishni aviaqatnovlarni rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz

3. Tinbergen J. Shaping the World Economy: Suggestions for an International Economic Policy. – New York: Twentieth Century Fund, 1962.

4. Anderson J.E. A theoretical foundation for the gravity equation // The American Economic Review. – 1979. – Vol. 69, No. 1. – P. 106–116.

5. Anderson J.E., van Wincoop E. Gravity with gravitas: A solution to the border puzzle // The American Economic Review. – 2003. – Vol. 93, No. 1. – P. 170–192.

6. Morley C., Rosselló J., Santana-Gallego M. Gravity models for tourism demand: theory and use // Annals of Tourism Research. – 2014. – Vol. 48. – P. 1–10.

7. Head K., Mayer T. Gravity equations: Workhorse, toolkit, and cookbook // Handbook of International Economics. Vol. 4. – Amsterdam: Elsevier, 2014. – P. 131–195.

8. Yotov Y.V., Piermartini R., Monteiro J.-A., Larch M. An Advanced Guide to Trade Policy Analysis: The Structural Gravity Model. – Geneva: WTO, UNCTAD, 2016.

9. Santos Silva J.M.C., Tenreyro S. The log of gravity // The Review of Economics and Statistics. – 2006. – Vol. 88, No. 4. – P. 641–658.

10. Santos Silva J.M.C., Tenreyro S. Further simulation evidence on the performance of the Poisson pseudo-maximum likelihood estimator // Economics Letters. – 2011. – Vol. 112, No. 2. – P. 220–222.

11. Neumayer E. Visa restrictions and bilateral travel // The Professional Geographer. – 2010. – Vol. 62, No. 2. – P. 171–181.

12. Balli F., Balli H.O., Cebeci K. Impacts of exported Turkish soap operas and visa-free entry on inbound tourism to Turkey // Tourism Management. – 2013. – Vol. 37. – P. 186–192.

13. Angrist J.D., Pischke J.-S. Mostly Harmless Econometrics: An Empiricist's Companion. – Princeton: Princeton University Press, 2009.

14. Bertrand M., Duflo E., Mullainathan S. How much should we trust differences-in-differences estimates? // The Quarterly Journal of Economics. – 2004. – Vol. 119, No. 1. – P. 249–275.

15. Goodman-Bacon A. Difference-in-differences with variation in treatment timing // Journal of Econometrics. – 2021. – Vol. 225, No. 2. – P. 254–277.

16. Callaway B., Sant'Anna P.H.C. Difference-in-differences with multiple time periods // Journal of Econometrics. – 2021. – Vol. 225, No. 2. – P. 200–230.

17. Peng B., Song H., Crouch G.I., Witt S.F. A meta-analysis of international tourism demand elasticities // Journal of Travel Research. – 2015. – Vol. 54, No. 5. – P. 611–633.

18. Crouch G.I. The study of international tourism demand: A survey of practice // Journal of Travel Research. – 1994. – Vol. 32, No. 4. – P. 41–55.

19. Lim C. Review of international tourism demand models // Annals of Tourism Research. – 1997. – Vol. 24, No. 4. – P. 835–849.

20. Breiman L. Random forests // Machine Learning. – 2001. – Vol. 45, No. 1. – P. 5–32.

21. Chen T., Guestrin C. XGBoost: A scalable tree boosting system // Proceedings of the 22nd ACM SIGKDD International Conference on Knowledge Discovery and Data Mining. – 2016. – P. 785–794.

22. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti va ochiq ma'lumotlar portali. – URL: https://stat.uz

23. Jahon banki. World Development Indicators ma'lumotlar bazasi. – URL: https://databank.worldbank.org

24. Turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan olib kelingan har bir turist uchun rag'batlantiruvchi subsidiyalar berish tartibi.

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy